

**INKLYUZIV TA'LIM SAMARADORLIGIN OSHIRISHDA OILALAR
BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKTSION-PEDAGOGIK ISH**

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich

Tel: +998990222700

E-mail: Xurshidmaxmudov63@gmail.com

Annotatsiya: Maqolaning mazmuni oilalarning hamkorlikda ishlashga tayyorligining funktsional mazmunini, inklyuziv ta'limning o'ziga xosligi va inklyuziv ta'lim muhiti bilan belgilanadigan maxsus yo'nalishlar shu bilan birga oilalar inklyuziv tayyorligining kompetentlik tarkibining mazmuniy tuzilmasidan iborat.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim muhiti, oila funksiyasi, ijtimoiylashuv, imkoniyati cheklangan, adaptatsiv fuksiya, logoped, itegratsiya, hamkorlik, kommunikativ xususiyatlar.

**КОРРЕКТИВНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ РАБОТА С СЕМЬЕЙ В
ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНКЛЮЗИВНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ**

**Преподаватель Кокандского государственного педагогического
института**

Махмудов Хуршиджон Шухратович

Телефон: +998990222700

E-mail: Xurshidmaxmudov63@gmail.com

Аннотация: Содержание статьи включает в себя функциональное наполнение готовности семей к совместной работе, конкретные направления, определяемые уникальностью инклюзивного образования и инклюзивной образовательной среды, а также содержательную структуру компетентностной структуры инклюзивной готовности детей семьи.

Ключевые слова: инклюзивная образовательная среда, функция семьи, социализация, инвалид, адаптационная функция, логопед, интеграция, сотрудничество, коммуникативные особенности.

CORRECTIONAL-PEDAGOGICAL WORK WITH THE FAMILY TO INCREASE THE EFFICIENCY OF INCLUSIVE EDUCATION

Lecturer at Kokand State Pedagogical Institute

Makhmudov Khurshijon Shukhratovich

Phone: +998990222700

E-mail: Xurshidmaxmudov63@gmail.com

Abstract: The content of the article includes the functional content of the readiness of families to work together, specific areas determined by the uniqueness of inclusive education and the inclusive educational environment, as well as the content structure of the competence structure of the inclusive readiness of family children.

Key words: inclusive educational environment, family function, socialization, disabled person, adaptive function, speech therapist, integration, cooperation, communication features.

Kirish

Respublikamiz hukumati tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy islohotlarda yosh avlodning barkamolligiga erishish masalalari, xususan, alohida e'tiborga muhtoj shaxslar ta'lim-tarbiyasi muammolarini hal etishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar orasida u yoki bu darajada imkoniyatlardan mahrum bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil etadi. Ushbu toifa bolalarga milliy qadriyat va hududiy shart-sharoitlarimizdan kelib chiqqan holda maxsus ta'lim muassasalarida oilalar bilan hamkorlikda korreksion yordam ko'rsatish, umumiy va xususiy maqsadlari, vazifalari, ta'lim-tarbiyalashning mazmun va tamoyillari, ushbu bolalar imkoniyatlariga mos bo'lgan ish metodlarining ilmiy asoslarini to'liq ishlab chiqish maxsus ta'lim tizimining kun tartibida turgan hamda o'zining tezkor yechimini kutayotgan bosh muammodir.

Adabiyotlar tahlili

Inklyuziv ta'lim amaliyotini ta'lim jarayoniga joriy etish murakkab jarayon bo'lib, ob'ektiv ruhiy-ijtimoiy, sub'ektiv o'zaro ta'sir, kasbiy va pedagogik

xususiyatlar, vazifalar, tamoyillar va yondashuvlarining xususiyatlarini, shuningdek, o'rganilayotgan fanning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurati bilan belgilanadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, inklyuziv ta'lim har bir ta'lim oluvchining psixologik, pedagogik, ijtimoiy, fizik, fiziologik va yosh xususiyatlari hamda imkoniyatlarini o'z ichiga oladi, uning shaxsiy rivojlanishi uchun pedagogik shart-sharoitlar yaratadi. Bunday muhitni yaratish turli sohalarda faoliyatni amalga oshirishni o'z ichiga oladi, masalan: maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqish asosida o'qitish va ta'lim metodlarini, maxsus darsliklar va o'quv qo'llanmalar, texnik va dasturiy vositalari, yordamchi xizmatlarini ko'rsatish, imkoniyati cheklangan yoshlarni zaruriy texnik va metodik yordam bilan ta'minlash, guruhli, individual va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini o'tkazish va boshqalar [4].

V.A.Slaystinina va L.S.Suyovning so'zlariga ko'ra, oilalarni hamkorlikka tayyorlash ketma-ket bosqichlardan iborat: ijodiy shaxsiyatni rivojlantirish; ilmiy bilim va pedagogik tadqiqotlar metodologiyasini o'zlashtirish; innovatsion texnologiyani ishlab chiqish, pedagogik jarayonda innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha amaliy ishlar. Bu vaqtda nogiron bolalar juda dolzarb bo'lib qolmoqda [1].

P.Sabelnikova oilalarning tayyorgarligi uchun quyidagi psixologik va pedagogik bilimlar zarurligini ta'kidlaydi: uning an'anaviy ta'lim shaklidan farq qiladigan inklyuziv ta'limni taqdim etish va tushunish; inklyuziv o'quv muhiti ostida bolalarning yoshi va yoshining psixologik shakllari va xususiyatlarini bilish; bolalarni buzilgan va normal rivojlanib boradigan bolalarni birgalikda o'qitish uchun o'quv jarayonini psixologik va didaktik dizayn usullarini bilish.

Oilalarning inklyuziv tayyorligini aniqlash uchun zamonaviy pedagogika professional kompetentsiya kontseptsiyasini (A.Akova, V.I.Kashnitskiy, L.A.Petrovskaya)[3] pedagogik faoliyatini amalga oshirishni va ularning mahoratini tavsiflaydi. SHu sababli ilmiy tadqiqotlarda "Oilalarning pedagogik saviyasi" tushunchasi turlicha izohlanadi. So'nggi bir necha yil ichida pedagogik uquv va saviyani ota-onalarda rivojlantirish va o'qituvchi tashabbusi bilan

professional pedagogik faoliyatni amalga oshirilishining sub'ektiv shaxsiga alohida e'tibor qaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda oilalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish tizimini samarali tashkil etish, korreksion ish jarayoinida bolalar ijtimoiy moslashuv jarayonlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida maxsus pedagogika nazariyasida bir butun, yaxlit xolatda tadqiq etildi hamda inklyuziv ta'lim jarayonlaridagi kamchiliklarni korrektsiyalash, uning mazmuni mohiyati va funktsiyalari ilmiy -pedagogik nuqtai nazardan ochib berildi.

Tahlillar va natijalar

Inklyuziv ta'lim mohiyatini tushunishda pedagogni oilalar bilan hamkorlikka tayyorlash ta'lim natijalari o'rtasidagi munosabatni va kompetentliklar majmuini belgilab beradi. Muayyan ijtimoiy (oilalar)yoki kasbiy (pedagog)sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun o'z salohiyatidan ya'ni bilim, ko'nikma, tajriba va shaxsiy fazilatlaridan (kompetentsiyalardan) foydalanish qobiliyati va pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorligini bildiruvchi malakalarning shakllanishi bilan asoslanadi.

Oilalarning inklyuziv tayyorgarligi uning pedagogik faoliyatga tayyorligi, rivojlanishi, kompetentlikni shakllantirish uchun pedagogik shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratgan holda ta'lim oluvchining qadriyatli-semantik yo'nalishlari tizimi nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi mumkin, bu esa ijtimoiy fanlar bo'yicha pedagog va ota-onalar shaxsining barcha komponentlarida pedagogik faoliyatni tavsiflovchi ijtimoiy, madaniy, tashkiliy, boshqaruv va kommunikativ xususiyatlarni mazmuniy jihatdan umumlashtiradi.

Ta'kidlash lozimki, oilalarning hamkorlikka tayyorligini asosiy ijtimoiy munosabat sifatida belgilash mumkin, bunga sabab ijtimoiy munosabatlarning butun bir yaxlit tizimi bilan tartibga solinadigan pedagogik sohada shakllanadi deb belgilash mumkin.

SHunday qilib, inklyuziv ta'limni rivojlantirishning ob'ektiv va sub'ektiv omillaridan kelib chiqib, oilalar va muassasalar hamkorligining o'ziga xos xususiyatlarini va oilalarning shaxsiy fazilatlariga, uning pedagogik savodxonligiga bo'lgan talablarni refleksiyalovchi fenomen sifatida qarash mumkin. Oila va muassasa hamkorligining inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishga tayyorligi, bir tomondan, pedagogik tayyorlikning komponenti bo'lsa, boshqa tomondan nostandart vaziyatga tez moslashishning zaruriy sharti, muvaffaqiyatli hamkorlikda faoliyat olib borishning zaruriy sharti sifatida belgilanadi.

Oilalar va pedagoglarning hamkorligining inklyuziv ta'lim amaliyotiga yo'nalgan holda amalga oshirilishi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- ijtimoiy va madaniy;
- inklyuziv ta'lim qadriyatlarini bilishi, barcha ishtirokchilarga nisbatan bag'rikenglik, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy va pedagogik faoliyat olib borishi;
- inklyuziv ta'lim makonida barcha bolalarning ijtimoiylashuviga e'tibor qaratishi;
- kasbiy-pedagogik, inklyuziv ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan samarali muloqot qila olishi;
- inklyuziv ta'limga qiziquvchilarning ijtimoiy sherikligini ta'minlay olishi.

Oilalar va o'qituvchilarning inklyuziv tayyorligining asosiy xususiyatlari quyidagicha:

- inklyuzivlikning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini farqlay olish;
- inklyuziv ta'lim muhitining qadriyatli mazmunini aniqlash;
- inklyuziv ta'lim makonining o'zgaruvchanligiga moslashish;
- inklyuziv ta'limda pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish;
- oliy ta'limning ta'lim natijalari bilan mazmunini o'zaro bog'lash.

Adaptiv funktsiya oilalarning inklyuziv tayyorligini inklyuziv ta'lim sharoitida ta'minlaydi va inklyuziv ta'limning barcha ishtirokchilari bilan munosabatlarni amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

O'qituvchi va oilalarning inklyuziv tayyorligining funktsional mazmunini aniqlashda integrativ, amaliyotga yo'naltirilgan, adaptiv, gnostik, integrativ, o'z-o'zini tartibga solish funktsiyalaridan foydalaniladi.

Oilalarning ta'lim muassasasi bilan hamkorligining inklyuziv ta'limga ta'sirining gnostik funktsiyasida inklyuziv ta'lim sharoitida bilimdan foydalanish qobiliyati namoyon bo'ladi; oilalarning zaruriy umummadaniy va umumkasbiy kompetentsiyalar majmuasini egallashi; o'z-o'zini takomillashtirish istagi, o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini tartibga solish va o'z-o'zini rivojlantirishi va boshqalar.

Oilalar va muassasalar hamkorligining inklyuziv ta'limga maqsadli yo'naltirilganligini baholash funktsiyasi ta'lim jarayonini loyihalashtirish, ta'lim natijalarini oldindan ko'rish, inklyuziv ta'lim muhitining mavjud pedagogik shart-sharoitlarini baholash, pedagogik harakatning yo'nalishlarini aniqlash, motivatsion, konativ, aqliy sa'y-harakatlarni bashoratlash va natijaga erishishdan iborat.

Xulosalar

Inklyuziv ta'limda oila va muassasalar hamkorligining integrativ funktsiyasi egallangan bilimlarni umumlashtirish, kognitiv faoliyatning ilmiy usullarini egallash, ta'limga yo'nalgan faoliyatda bilimning umumiy usullaridan foydalanish jarayonida amalga oshiriladi.

Oilalarning inklyuziv tayyorligining qadriyatli funktsiyasi inklyuziv ta'lim sharoitida kasbiy-pedagogik faoliyatning qadriyatli munosabatlari majmui sifatida shakllantirishdir.

Ota-onalar va pedagoglar hamkorligining ijtimoiy ahamiyatini inklyuziv ta'limning barcha ishtirokchilari tushunishi, oilaviy ta'limiy muhitni yaratishga barcha ishtirokchilarning qiziqishi, mas'uliyatni tushunishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aybazova, M.Yu. Podgotovka budущix uchiteley k rabote v usloviyax inklyuzivnogo obrazovaniya / M.Yu. Aybazova, K.Yu. Lavrinets // Pedagogika. — 2014. — № 4. — S. 82-86.
2. Lyubimov, M.L. Inklyuzivnoe obrazovanie: pomoshch' detyam s ogranichennymi vozmojnostyami zdorov'ya / M.L. Lyubimov // Sotsial'naya pedagogika. — 2012. — №2. — S.48 - 53.
3. Xitryuk, V.V. Kompleks pedagogicheskix usloviy formirovaniya inklyuzivnoy gotovnosti budущix pedagogov / V.V. Xitryuk // Vestnik Bashkirskogo universiteta. — 2014. — T. 19. — № 4. — S. 1588-1593.
4. Forlin C., Chambers D. Teacher preparation for inclusive education: Increasing knowledge but raising concerns. // Asia-Pacific Journal of Teacher Education. — 2011. — Vol. 39, № 1 — P. 17-32. — Mode of access: <http://web.ebscohost.com/ehost>.